



BOSHLANG'ICH TA'LIMDA IMLOVIY VA PUNKTUATSION SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISH

Qobilova Nargiza Otamurod qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Emile: qobilovanargiza075@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17338825>

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning imloviy va punktuatsion savodxonligini shakllantirish masalalari keng tahlil qilingan. Tadqiqot davomida kuzatuv, tahlil, tajriba-sinov, so'rovnoma va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Maqolada imloviy me'yorlarga amal qilish, tinish belgilarini to'g'ri qo'llash o'quvchilarning yozma nutq madaniyatini shakllantirishdagi o'rni, o'qituvchining metodik yondashuvi, mashg'ulotlarni samarali tashkil etish yo'llari va zamonaviy texnologiyalar yordamida bu jarayonni takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: imloviy savodxonlik, punktuatsiya, boshlang'ich ta'lim, yozma nutq, metodika, til madaniyati, o'qituvchi, mashg'ulot, diktant, tahlil.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim – bu shaxsning umumiy rivojlanishi, tafakkuri, nutqi va yozma savodxonligini shakllantirishning poydevor bosqichidir. Ayniqsa, imloviy va punktuatsion savodxonlikni shakllantirish o'quvchilarning o'z fikrini yozma shaklda aniq, mantiqan izchil va grammatik jihatdan to'g'ri ifoda etish qobiliyatini rivojlantiradi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan Prezidentning "Ta'lim sifatini oshirish va o'quv dasturlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori (2018-yil 6-iyul) hamda "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (2020-yil 23-sentabr)larida boshlang'ich ta'limning mazmuni va sifatiga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu hujjatlar o'quvchilarning lingvistik savodxonligini oshirish, o'z fikrini to'g'ri ifoda etish va til me'yorlariga rioya qilishni asosiy vazifalardan biri sifatida belgilaydi.

Asosiy qism. imloviy va punktuatsion savodxonlikni shakllantirish jarayoni ko'p qirrali pedagogik faoliyat sifatida qaraladi. Avvalo, o'qituvchi o'quvchilarda so'z, gap va matn haqida to'liq tushuncha hosil qilishi, tovush va harf o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgatishi kerak. Chunki to'g'ri yozuvning poydevori fonetik bilimlarga tayanadi. Har bir so'zni to'g'ri yozish uchun o'quvchi uni to'g'ri talaffuz etishi, tovushlar tarkibini aniqlay olishi zarur. Shu nuqtai nazardan, 1–2-sinf bosqichida "savod o'rgatish" darslari, 3–4-sinfda esa "imlo va punktuatsiya mashg'ulotlari" muhim o'rin tutadi.

O'quvchilar imlo qoidalarini o'zlashtirishda o'qituvchining metodik mahorati katta ahamiyatga ega. Imloviy mashg'ulotlarni tashkil etishda o'qituvchi "Tahlil orqali o'rganish", "Matndan izla", "Xatoni top", "So'zni to'g'ri yoz" kabi interfaol usullardan foydalanishi mumkin. Bu usullar o'quvchilarni faollashtiradi, ularni fikrlashga, solishtirishga va xulosalar chiqarishga undaydi. Masalan, "Xatoni top" usulida o'quvchi berilgan matndan imlo xatolarini aniqlaydi, "Matndan izla" usulida esa muayyan imlo qoidasi asosida so'z yoki iboralarni topadi.

Puntuatsion savodxonlikni shakllantirishda esa o'quvchilar tinish belgilarining ma'nosini, ularning gap mazmuni bilan bog'liqligini tushunishlari zarur. Tinish belgilarini o'rganish jarayonida "intonatsion tahlil" usulidan foydalanish samarali natija beradi. O'qituvchi gapni o'qiyotganda uning ohangini, pauzasini, urg'usini to'g'ri ifoda etadi va shu orqali o'quvchilarda tinish belgilarini eslab qolish va ularni o'rinli qo'llash malakasi shakllanadi.



Boshlang'ich sinflarda imloviy va punktuatsion ko'nikmalarni mustahkamlashda diktant mashg'ulotlari muhim o'rin tutadi. Diktantning turlari ogohlantiruvchi, tekshiruv, ijodiy, izohli va tahliliy diktantlar o'quvchilarning xatolarga e'tiborini oshiradi. Ayniqsa, izohli diktantlar o'quvchidan faqat yozish emas, balki yozilgan so'zning nega shunday yozilganini izohlashni talab qiladi. Bu esa fikrlashni faollashtiradi, o'quvchini mantiqiy izchillikka o'rgatadi.

Raqamli texnologiyalar asosidagi yondashuvlar ham bu jarayonni samarali qiladi. Hozirda ta'lim muassasalarida "LearningApps", "Quizizz", "Kahoot" kabi onlayn platformalar orqali imloviy mashqlarni o'tkazish mumkin. Bu vositalar o'quvchilarda raqobat muhitini yaratadi, dars jarayonini qiziqarli qiladi va xatolarni avtomatik tarzda aniqlab, tuzatish imkonini beradi. Shuningdek, elektron imlo lug'atlari, animatsion darsliklar, multimediali taqdimotlar va videodarslar yordamida imloviy va punktuatsion mashg'ulotlarni vizual tarzda yoritish o'quvchilarning eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

O'qituvchi darslarda didaktik materiallardan keng foydalanishi lozim. Masalan, imlo qoidalari bo'yicha tayyorlangan jadval, sxema, rasmi kartochkalar, chizmalı diktantlar va test topshiriqlari o'quvchilar uchun qulay bo'ladi. Bu materiallar o'quvchilarni nafaqat yozma mashqlarga, balki og'zaki tahlilga ham jalb etadi. O'quvchi yozgan matnini tahlil qilish, xatolarni topish va tuzatish jarayonida o'z ustida ishlashni o'rganadi.

Tadqiqot jarayonida o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, imloviy va punktuatsion savodxonlikni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish muhim. Ba'zi o'quvchilar eshitish orqali yaxshiroq o'zlashtirsa, boshqalar ko'rish yoki amaliy mashg'ulotlar orqali samarali o'rganadi. Shu bois darslarda differensial yondashuvdan foydalanish, ya'ni har bir o'quvchining o'rganish uslubiga mos topshiriqlar berish zarur.

Tajriba natijalariga ko'ra, darslarda interfaol metodlardan muntazam foydalanish o'quvchilarning imloviy xatolarini 25–30 foizgacha kamaytirgan, punktuatsion xatolar soni esa 15 foizgacha qisqargan. Bundan tashqari, o'quvchilar yozma nutqda fikrni aniq ifoda etish, matn tuzish va uni tahlil qilish bo'yicha sezilarli o'sishni ko'rsatgan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda imloviy va punktuatsion savodxonlikni shakllantirish o'quvchilarning nutq madaniyatini rivojlantirish, tafakkurini boyitish va til me'yorlariga rioya etish madaniyatini singdirishda muhim omildir. Shu sababli o'qituvchilar uchun doimiy metodik seminarlar tashkil etish, o'quv dasturlarini zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish, darslarda raqamli texnologiyalardan keng foydalanish zarur. Bular ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning savodxonlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini oshirish va o'quv dasturlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3775-son Qarori, 2018-yil 6-iyul.
2. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, 2020-yil 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimida o'zbek tili o'qitish sifatini yaxshilash to'g'risida"gi qarori, 2022-yil.
4. Qodirova M., Rasulova N. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining imloviy savodxonligini shakllantirish metodikasi." – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.



5. To'raqulova Z. "O'quvchilarda punktuatsion malakalarni shakllantirishda zamonaviy yondashuvlar." – Pedagogika jurnali, 2023, №3.